

This is not registered version of TotalDocConverter  
Mehmonlarni kutib olish uchun Kitoblar Olami taqdim etadi. Sotti Suvonovichning qavatida pildirab yurgan o'rinbosari Halimjon hovliqancha xo'jalik ishlari mudiri Turdiquelni bir chekkaga tortdi.

- Turdiquel, tezda bir parcha latta top! - dedi tipirchilab.
  - Latta?! Qanaqa latta? - dedi Turdiquel peshanasi tirishib.
  - Oyoq, e, botinka artadigan latta-da.
  - Nimaga kerak bo'lib qoldi?
  - Sotti Suvonovichning botinkalariga chang qo'nibdi. Artib qo'ymasa bo'lmaydi. Mehmonlar ayb qilishi mumkin.
  - Mehmonlarning oldida noqulay emasmi?
  - Nega noqulay bo'larkan?
  - Laganbardor ekan, deb o'ylashadi-da.
  - Mehmonlarning o'ylashi bilan nima ishim bor!
- Turdiquel biroz hovridan tushdi.
- Sotti Suvonovichning o'zlari aytdilarmi?
  - Yo'q, o'zlari hali bilmaydilar. Qorinlari oyoqlarining uchini to'sib turibdi.
  - O'zlari aytmagan bo'lsalar, sizga nima?
  - Bilib qolsalar, menga gap tegishi mumkin.
  - Nimaga endi sizga?
  - "Men-ku ko'rmasman, sening ko'zing qaerda edi?" deb ko'pchilikning oldida sharmanda qilishlari hech gap emas.
  - Demak, latta topish kerak, shundaymi?
  - Shunday, Turdiquel, topmasa bo'lmaydi.
- Turdiquel cho'ntagidan ro'molchasini olib, Sotti Suvonovich tomon yurdi. Halimjon uning orqasidan yugurdi.
- Qayoqqa, Turdiquel, to'xta!
  - Qayoqqa bo'lardi, Sotti Suvonovichning botinkalarini artib qo'yishga-da!
  - Men o'zim artaman, ro'molchangni buyoqqa ber!
  - Yo'q, o'zim, sizga yarashmaydi.
  - Binoyiday yarashadi-da, qani, menga ber-chi!
- Turdiquelning birdan fe'li aynidi.
- Ho, obro'ni siz olmoqchimisiz?
- Halimjon ham to'nini teskari kiydi.
- Nima, sen mening g'oyamni o'zlashtirmoqchimisani?!
  - Yo'q! Lekin dastro'molcha meniki!
  - G'oya esa meniki!..
- Ish hiqildoqqa borib taqalganda, Sotti Suvonovich mehmonlarning mashinasiga o'tirib qayoqqadir jo'nab qoldi...

\* \* \*

O'rinbosari kirib kelganda, g'isht zavodining direktori Qoshiqov qoshlarini chimirib o'tirgan edi.

- Tinchlikmi, rangizda rang yo'q! - so'radi o'rinbosar.
  - Hushyor bo'lib turinglar, bittasi keladi, - dedi Qoshiqov.
  - Kim ekan u?
  - Bilmayman, devday, asabi chatoq deyishdi. Qo'lidan hamma ish kelarmish... Kelsa, sizga chiqaraman. O'zingiz tinchiting!
- O'rinbosar peshonasini tirishtirib chiqib ketdi. Oradan bir soat vaqt o'tdi. Eshik taqillab, so'ng ochildi.
- Meni sizga yuborishdi, - aytilgan kishi kirib keldi.
  - Men shoshib turuvdim, o'rinbosaringa uchrashing, - dedi Qoshiqov bahona qilib...
- Oradan besh-o'n daqiqa o'tdi. O'rinbosar qo'llarini ishqalagancha Qoshiqovga yaltoqlandi:
- Og'iz ocholmadi, qo'lga bir "g'isht" tutqazib yubordim...
- Ertasi kuni yana paydo bo'ldi o'sha nusxa.
- Meni sizga yuborishdi, - dedi mo'lmayib eshik yonida tikka turarkan.
  - Men bandman, o'rinbosaringa uchrashing! - Qoshiqovning titrab-qaqshab aytgan gapi shu bo'ldi.
- Birozdan so'ng o'rinbosar og'zi qulog'ida kirib keldi:
- Og'iz ochmoqchi edi, yana bitta "g'isht"ni og'ziga urib yubordim, - dedi "ishni qoyil qildim" deganday...
- Noma'lum nusxa uchinchi bor kelganda, Qoshiqovning sabri chidamadi.
- Kir, o'tir qani bu yerga! - dedi u nusxaga do'q urib. - Berarkan deb, kelaverasanmi? Qaerda ishlaysan o'zi?
  - Hech qaerda ishlamayman.
  - Unda nega har kuni kelasan?
  - Sizga yuborishgandan keyin kelaman-da.
  - Kim yubordi seni?
  - Bojangiz, Saidvaqqos aka.
  - Nima kerak senga?
  - Ish kerak.
  - Shu dardingni darrov aytmaysanmi?
  - Kelsam bandsiz. O'rinbosaringiz so'rab-surishtirmay pul bergani bergan.
  - Nega beryapsan, deb so'ramaysanmi?
  - Qaerdan bilay, bu yerda maosh oldindan berilsa kerak, deb o'yladim-da.

- E, o'ylamay ket! Odamni o'takasini yording-ku! Bo'пти, olgan maoshingni halollaysan endi...